

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 6 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SP1342V3I6Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 6 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Аминов Хамидулла Абдирахимович -</i> БОБУР ДАВРИДАГИ САМАРҚАНД ШАЙХУЛИСЛОМИ	9-14
<i>Неъматов Рустам Абдуваид ўғли</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР	15-23
<i>Raxmanov Zafar Adilovich, Aloxunov Alisher Ahmadjonovich</i> FARG'ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIK LARI JOYLASHUV QONUNIYATLARI: TAHLIL VA MULOHAZALAR	23-32
<i>Мансуров Музаффаржон</i> СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТУРИЗМНИНГ ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	32-42
<i>Mirsoatova Sayyora Turg'unovna, Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich</i> FARG'ONA MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI JAMOALARINI O'ZARO MADANIY ALOQALARI XUSUSIDA	43-48

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Kurpayanidi Konstantin Ivanovich</i> COVID-19 PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH SHAROITIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI	49-55
<i>Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li</i> KOMPANIYALAR SAMARALI BOSHQARUV TIZIMIDA ICHKI NAZORATNING O'RNI	56-65
<i>Абдуллаева Зулфия Иззатовна</i> ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОВЕДЕНИЕ КЛИЕНТОВ ГОСТИНИЦ	66-74
<i>Алимова Муниса Юлчиевна</i> ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ	75-80
<i>Абдиева Наргиза Шухратовна</i> ИЧКИ АУДИТДА ФИРИБГАРЛИК РИСКНИ АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ	81-91
<i>Тўхтасинова Дилдора Раҳмонбердиевна, Ахунова Маърифат Хакимовна</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ҲАЁТ	92-97
<i>Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li</i> BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	98-103
<i>Савинова Галина Анатольевна</i> ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ	104-108
<i>Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li</i> QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI	109-114

Урдушев Хамракул, Мавлянов Мажид, Эшанкулов Сирожиддин, Розиева Гулхаё
 АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РАҚАМЛИ
 ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ 115-125

Худаярова Хуршида Абдуназаровна
 ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУАММОЛАРИ
 ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ 126-132

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Бойдадаев Абдуррохмон Толибжон ўғли
 РЕНЕССАНС ДАВРИДА ПАНТЕИСТИК ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ..... 133-141

Аликулов Хусниддин Акбарович
 ҲОЗИРГИ ДАВРДА ГЛОБАЛ ЭКОЛОГИК ХАВФ-ХАТАР ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАР .142-151

Саидова Камола Усканбаевна
 РЕНЕССАНС ДАВРИ САНЪАТИ – ЖАҲОН МАДАНИЯТИ АЖРАЛМАС ҚИСМИ
 СИФАТИДА 152-156

Shirinov Anvar Qanoatovich
 MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTI SOHASIDAGI STRATEGIYALARNING IJTIMOIIY-
 FALSAFIY TAHLILI 157-162

Хасанов Бобуржон Хакимович
 ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ОММАВИЙ НОРОЗИЛИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ОЛДИНИ
 ОЛИШНИНГ ҲОЖИВИЙ-МАҲКУРАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ 163-167

Xodjayeva Fotima Nabixonovna
 AHMAD G'AZZOLIYNING "SAVONIH" ASARI HAQIDA QISQACHA TASNIF168-172

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Rustamova Shaxnoza Abduraximovna
 MATN, TARJIMA TURLARI VA TARJIMADA TARJIMON MAHORATINING O'RNI 173-180

Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi
 MUALLIF DISKURSIV SHAXSI TUSHUNCHASI, STRUKTURASI VA RIVOJLANISH
 TENDENSIYALARI 181-191

Turg'unova Fazilat Rustam qizi
 PRAGMALINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN SARLAVHA FUNKTSIYALARI 192-197

Saidov O'lmas Raxmatovich
 O'ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI 198-206

Xuramova Dildora Rahkmonkulovna, Axmedova Firuza Asrorovna
 O'ZBEKISTONDA TARJIMONLARNING TARJIMA USLUBINI BERILISHI XUSUSIDA 207-213

Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li
 MADANIYATLARARO SIYOSIY MAKONDA TAJOVUZKOR SALOHİYATGA EGA NUTQ
 TA'SIRINING USULLARI 214-219

Murodova Nilufar Karomatovna
BLOGGERLIK FAOLIYATIDA MAHORAT MASALALARI 220-224

Ochilova Hilola Husan qizi
XITOIY TILIDA NOMINALIZATSIYA HODISASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR 225-229

Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o'g'li
NEMIS TILIGA CHET TILIDAN O'ZLASHAGAN SO'ZLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK
TADQIQI 230-238

Yakubova Nilufar Egamberganovna
"MULLO NASRIDDIN" – TURKIY MATBUOT TARIXIDA MUHIM HODISA 239-245

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Абдуллаева Маликабону Эркин қизи
ХАЛҚ ТАЪЛИМИДА МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВ ВА МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИ БИЛАН
БОҒЛИҚ КОРРУПЦИЯВИЙ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ 246-256

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Jumayev Rustam G'aniyevich
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH 257-263

Бозорова Муслима
ЭТНОПЕДАГОГИКА ТАЛАБА-ЁШЛАРДА ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ
ШАКЛЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА 264-270

Samadova Sarvinoz Samad qizi
YOSHLARNI BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR KOMPETENSIYALAR.... 271-275

Жўраев Воҳид Тожимаматович
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАЪЛИМ
МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШ 276-288

Бозорова Назокат
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА ОИД МАҲАЛЛИЙ МУЗЕЙ МАТЕРИАЛЛАРИ
ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВОСИТАСИ
СИФАТИДА 289-295

Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li
МАКТАВ О'QUVCHILARINI HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI
BORASIDA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NATIJALAR TAHLILI 296-301

Sharipova Sitara Xaydarovna
OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN
FOYDALANISH 302-307

Isag'aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna
BIOLOGIYA O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARNI
QO'LLASH 308-312

<i>Umarov Abdusamat Abdumalikovich, Xojimurodova Mahliyoхon Kenjavoy qizi</i> OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI	313-317
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna</i> LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI...318-325	
<i>Ro'ziev Rustam Ro'zimurodovich</i> YONG'IN XAVFSIZLIGI MADANIYATI–ODDIYLIKDAN KOMILLIK SARI	326-330
<i>Акрамов Баходир</i> МАЛАКАЛИ ДАРВОЗАБОНЛАРНИ ЎЙИН ДАВОМИДА БАЖАРИЛАДИГАН ТЕХНИК- ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ	331-336
<i>Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li</i> BO'LAJAK TARIXCHILARDA TARIX FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	337-342
<i>Umarov Bekzod Azizovich</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI	343-349
<i>Бекимбетова Дильфуза Оралбаевна</i> РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	350-356

13.00.00 – Педагогика фанлари

Ro'ziev Rustam Ro'zimurodovich
Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti mustaqil tadqiqotchisi

YONG'IN XAVFSIZLIGI MADANIYATI–ODDIYLIKDAN KOMILLIK SARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yong'in xavfsizligi qoidalariga oid ma'lumotlar asosida yong'in xavfsizligi madaniyatini shakllantirishning huquqiy asoslari, yong'in xavfsizligi madaniyatiga ta'rif berish orqali uning tarkibiy komponentlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yong'in xavfsizligi, yong'in xavfsizligi madaniyati, yong'in xavfsizligi talablari, madaniyat, ta'lim-tarbiya, ko'nikma, malaka.

Рузиев Рустам Рузимуродович
Бухарский инженерно-технологический
институт, независимый исследователь

КУЛЬТУРА ПОЖАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ – ОТ ПРОСТОТЫ К СОВЕРШЕНСТВУ

Аннотация. В данной статье рассмотрены правовые основы культуры пожарной безопасности на основе информации о правилах пожарной безопасности и её структурных компонентов путём определения культуры пожарной безопасности.

Ключевые слова: пожарная безопасность, культура пожарной безопасности, требования пожарной безопасности, культура, образование, навыки, квалификация.

Ruziev Rustam Ruzimurodovich
Bukhara Institute of Engineering
and Technology, Independent Researcher

FIRE SAFETY CULTURE - FROM SIMPLICITY TO PERFECTION

Abstract. This article discusses the legal basis for the formation of a fire safety culture based on information related to fire safety rules, its constituent components by defining a fire safety culture.

Key words: fire safety, fire safety culture, fire safety requirements, culture, education, skills, qualification.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N44>

Kirish. Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, avvalambor, o'z kuch va imkoniyatiga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Bu yutuqlarning bardavomligi davlatimizning nafaqat siyosiy va iqtisodiy sohada salohiyatiligiga, balki xalqimizning madaniyati va turmush tarzi naqadar yuksak darajada ekanligiga bog'liq. Chunki, bir millatning o'zining an'anaviy, turli zamon va

makon ruhiyatiga mos keladigan madaniyati va turmush tarziga ega bo'lishi uning qanchalik qudratli ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun biz kelgusi satrilarda madaniyat nima, qolaversa, yong'in xavfsizligi madaniyati nima degan savollarni o'rganib chiqamiz.

Madaniyat inson hayoti va birligiga bog'liq bo'lgan tushunchadir. Shu o'rinda, "Yong'in xavfsizligi madaniyati" tushunchasi to'g'risida to'xtalishdan ilgari "madaniyat" atamasi haqida fikr bildirsak. Entoni Giddens bu haqida quyidagilarni aytadi: "Madaniyat tushunchasi jamiyat tushunchasi singari eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biridir. Madaniyat o'z ichiga muayyan guruhlariga taalluqli bo'lgan qadriyatlarni, ular rioya etadigan me'yorlarni, ular yaratadigan moddiy noz-ne'matlarni qamrab oladi. Qadriyatlar mavhum ideallar bo'lsa, me'yorlar odamlar rioya etadigan muayyan qoida va tamoyillardir. Me'yorlar jamiyatdagi "mumkin" va "mumkin emaslar"dir. [1]

Kundalik hayotda "madaniyat" atamasini qo'llar ekanmiz, ongning oliy mahsullari bo'lgan san'at, adabiyot, musiqa, rassomlik kabilarni nazarda tutamiz. Madaniyat tushunchasi ijodiy faoliyatning shu turlarinigina emas, yana boshqa ko'p hodisalarni qamrab oladi. Misol uchun ist'emol madaniyati, huquqiy madaniyat, parlament madaniyati, qonunlarni qo'llash madaniyati, yong'in xavfsizligi madaniyati kabi tushunchalar jamiyatimizda keng qo'llanilmoqda.

Materiallar va usullar. Yong'inlar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizda yil sayin yong'inlar sonining kamayish tendensiyasi kuzatilayotgan bo'lsada, biroq yiliga respublikada o'rtacha 13 mingdan ziyod yong'inlar sodir bo'lishi, ularda 500 nafarga yaqin fuqarolar turli tan jarohatlari olishi, 100 dan ortig'i esa, halok bo'lish holatlari va yetkazilayotgan iqtisodiy zarar bir necha milliard so'mni tashkil etishi alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari, hattoki, tashqaridan kuzatganda xam sezilmoqda: shahar va aholi punktlarining qiyofasi o'zgarmoqda, ko'cha, uy va xiyobonlar obod bo'lib bormoqda, ko'zni qamashtiruvchi ko'plab reklamalar, yangi do'konlar, bozor, supermarketlar va boshqa inshootlar paydo bo'ldi. Tadbirkorlar iste'molchilarning e'tiborini tortish maqsadida o'z kashfiyotchiliklarini namoyon etmoqdalar. Shu bilan birgalikda ko'pgina yoshlar katta miqdorda moddiy boylik topish ilinjida va ayni vaqtda buning uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarga ega bo'lish u yoqda tursin, hattoki, eng oddiy ma'lumot va madaniyat darajasiga erishmay turib, o'ylamay-netmay o'zlarini tijoratning turli sohasiga urmoqdalar. Hozirgi vaqtda asosan, vositachilik va olib sotarlikdan iborat bo'lib qolayotgan tijoratga berilish salbiy oqibatlarga ham olib keladi, kishilarning ma'naviy qashshoqlanishiga va tafakkurining nomaqbul shaklda rivojlanishiga sabab bo'ladi. Faqat boylik, mol-mulkning o'zigina insonga baxt keltira olmaydi. Inson kamoloti uchun kitob, san'at, tarix, madaniyat va musiqa zarur. Insonda ma'naviy kamolotga erishish uchun ichki ehtiyojni shakllantirishda ota-ona va o'qituvchining o'rni nihoyatda katta. Ilm va ma'rifatga ijobiy munosabatni rivojlantirishda ijodiy tashkilotlar - matbuot, nashriyot, radio, televidenie, kino va teatr ham ko'p narsa bog'liq. Huquqiy savodxonlikka erishish uchun talabchanlikdan tashqari jamiyat har bir kishining tegishli bilim darajasini o'zlashtirib olishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishda kuch-g'ayratini ayamasligi ham zarur. Bu esa, qonunga rioya qilish har bir kishining ichki e'tiqodiga aylanishi uchun imkoniyat yaratadi. Agar, biz aholining, ayniqsa, talaba yoshlarning huquqiy savodxonligini, ya'ni yong'in xavfsizligi qoidalariga talabchanliklarini oshirib, o'zlarining turmush sharoitlari va ish faoliyatlarida yong'in xavfsizligiga og'ishmay

rioya qilish ma'suliyatini shakllantirsak, talofatli, og'ir va ayanchli oqibatli yong'inlarning oldini oladi.

Natija va munozaralar. O'zbekiston Respublikasi **"Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi qonunining 3 - moddasida "Yong'in xavfsizligi - odamlarning, yuridik va jismoniy shaxslar mol mulkining, shuningdek atrof tabiiy muhitning yong'inlardan himoyalanganligi holati" deb ta'rif keltirilgan bo'lsa, "Yong'in xavfsizligi talablari - yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan ijtimoiy va (yoki) texnik xususiyatga ega maxsus shartlar" deb ta'riflangan. "Yong'in xavfsizligi" va "Yong'in xavfsizligi talablari" tushunchalaridan foydalanib, yong'in xavfsizligi madaniyati** tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltirsak bo'ladi. [2]

Yong'in xavfsizligi madaniyati - yong'in xavfsizligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarni o'zida mujassam etgan, yong'in bilan bog'liq ekstremal holatlarda harakatlanish, yong'in xavfsizligi talablari buzulishining oldini olish va o'chirilishini ta'minlash yuzasidan fuqarolarning hatti - harakat qoidalari majmuasi tushuniladi. Shu o'rinda aholining yong'in xavfsizligi madaniyati mavjud maxsus yong'in - texnik ma'lumotlarga ega bo'lish majburiyatini taqozo etmasligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Bunday vazifa qo'yilmayapti ham, chunki buni hal etishning imkoni ham yo'q, maqsadga muvofiq ham emas. Yong'in xavfsizligi madaniyati yong'in xavfsizligi bilimlarining alifbosini, eng oddiy normalarini bilishni, yong'in - texnik me'yorlarning murakkab labirintida adashmaslikni, zarur hollarda o'zini va mol mulkini yong'indan himoyalash ehtiyojini o'zida shakllantirishni taqozo etadi. Chunki bu ehtiyoj har qanday holda ham o'z xatti-xarakatini belgilab olishda yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq keladigan etalonlarga suyanishga imkon beradi. [3]

Yong'in xavfsizligi sohasida normativ huquqiy tartibga solish quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 - moddasi), "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas" (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 - moddasi). O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning mulkga egalik qilish "Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir" (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi) konstitutsiya bilan kafolatlanib, "Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart" ligi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5- moddasi) belgilab qo'yilgan. [3]

Yong'inlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan deyarli barcha holatlar tahlili inson omili bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Bo'lajak muhandislarni yong'in xavfsizligi asoslari bo'yicha o'qitishdan **maqsad** - respublikadagi yong'inga qarshi ahvolni barqarorlashtirish, ishlab chiqarish va turmushda yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida fuqarolarning yong'inga qarshi madaniyatini oshirishdan iboratdir.

Bo'lajak muhandislarni yong'in xavfsizligi asoslari bo'yicha o'qitishning **asosiy vazifalari** – ular tomonidan yong'in xavfsizligini ta'minlash borasidagi bilimlarni egallash, yong'in vaqtidagi harakatlar va usullarni o'rganish, yong'in sodir bo'lganda fuqarolar hayoti va sog'lig'ini saqlash, ularda moddiy boyliklarni qutqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Yong'in xavfsizligi madaniyati kundalik hayotda yong'in xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan, o'z hayotida yong'in xavfsizligini amalga oshirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda shaxsning qobiliyati va tayyorligini belgilaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga olgan, yong'in optimal harakat qilishga va yong'in xavfsizligini ta'minlashdagi ijtimoiy munosabatlar majmuasi tushuniladi.

Masalan, xonadan evakuasiya qilish mahorati yong'inning xavfli omillari ta'sirida, evakuasiya rejasi va yong'in paytida o'zini tutish qoidalarini bilish bilan ifodalangan ko'nikma va qobiliyatlarning kognitiv tarkibiy qismi bo'lib, ushbu qobiliyatning asosiy komponenti favqulodda vaziyatlarda yaxshi muvofiqlashtirilgan harakatlardan iboratdir.

Bundan tashqari, yangi ish sharoitlari bir kishining xabardorligining boshqa odamlar tomonidan olingan ma'lumotlarga bog'liqligini yaratadi. Shu sababli, bunday holatda, mustaqil ravishda ma'lumotni o'zlashtirish va to'plash imkoniyati yetarli bo'lmaydi, shuning uchun, jamoaviy bilimlar asosida qarorlar tayyorlanganda va qaror qabul qilinganda, axborot bilan ishlashning bunday texnologiyasini o'rganishga to'g'ri keladi. Bu, inson ma'lumot bilan ishlashda ma'lum bir madaniyatga ega bo'lishi kerakligini anglatadi. Ushbu haqiqatni aks ettirish uchun yong'in xavfsizligi madaniyati atamasi kiritilmoqda.

Dunyo siyosiy jarayonida xavf va tahdidlar oqimidagi xavfsiz yo'nalish uchun insonda umumiy madaniyat tarkibiy qismlaridan biri sifatida yong'in xavfsizligi madaniyati bo'lishi kerak. Yong'in xavfsizligi madaniyati insonning ijtimoiy tabiati bilan bog'liq. U insonning turli xil ijodiy qobiliyatlari, ko'nikmalari mahsulidir va u quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi (1-rasm):


- yong'in o'chirish texnik vositalardan (yong'in o'chirgich, ichki yong'in o'chirish jo'mraklari, dastaklari) foydalanishda aniq ko'nikmalarda;

- yong'in xavfsizligi qoidalarini, yong'in – portlash xavfli obyektlar, asosiy tarkibiy qismi portlab yonuvchi va xavfli mahsulotlar bo'lgan ishlab chiqarish texnologiyalaridan o'z faoliyatida xavfsiz ish jarayonini tashkil eta olish qobiliyatida;

- har xil manbalardan: portlovchi, yengil alanganuvchi va tez yonuvchi moddalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilish, atrofdagilarga o'rgatish va ma'lumotlardan ish faoliyatida samarali foydalana olish qobiliyatida;

- yong'inning xavfli omillarini analitik qayta ishlash asoslariga ega bo'lishida;

Yong'in xavfsizligi madaniyatini ta'lim muassasalarida rivojlantirish, xavfsizlik qoidalarini o'rgatish bo'yicha pedagogik shart sharoitlari yetarlicha o'rganilmagan.



1-rasm. Yong'in xavfsizligi madaniyatining tarkibiy qismi.

Ta'lim jarayoni butunlay ta'lim tizimining kommunikativ imkoniyatlariga, ta'lim darajasi esa, uning samaradorligini oshirishga bog'liq. Shu sababli, axborot uzatishning eng samarali usullarini qo'llash, shu bilan birga fundamental bilimlarni shakllantirish va individual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish zarur. Bunga masofaviy elektron ta'limning alohida holati sifatida ta'limning kompyuterlashtirilgan shakllarini o'z ichiga olgan eng istiqbolli ta'lim usullari yordamida erishish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fuqarolar tomonidan yong'in xavfsizligini ta'minlash, yong'inlarning oldini olish, yong'in xavfsizligi bo'linmalari yetib kelgunga qadar birlamchi yong'in o'chirish ishlarini amalga oshirish, yong'inning tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik barcha davrlarda ham fuqarolarning asosiy burchi sifatida e'tirof etilgan.

Inson xavfsizligi bilan bog'liq har qanday narsa, hodisa yoki voqea har doim ham davlat faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi kerak.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Giddens E. "Sotsiologiya" // Toshkent "Sharq" 2002 yil 52 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 oktabr kunidagi "Yong'in xavfsizligi qoidalari tasdiqlash to'g'risida" gi 649- sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020y., 09/20/649/1397-son.
3. Ro'ziyev R.R. "Yong'in xavfsizligi madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari" // O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi «Yong'in-portlash xavfsizligi» ilmiy-amaliy elektron jurnal, №2(7), 2021, 186-192 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 6 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).